

Farg‘ona viloyatida sanoat ishlab chiqarishi


2026- yil yanvar-may oyi uchun

- I. Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni
- II. Farg‘ona viloyati sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo‘yicha uslubiy tushuntirishlar va metama‘lumotlar

I. Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalarini soni

2026- yilning 1-iyun holatiga ko‘ra viloyatda 6 380 ta sanoat korxonalarini faoliyat yuritib kelmoqda. Ushbu sanoat korxonalarini soni asosiy iqtisodiy faoliyat turlari kesimida taqsimlanganda yuqori ulush 1 057 tasi (faoliyat ko‘rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 16,6 % i) oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishga, 793 tasi (12,4 %) kiyim ishlab chiqarishga, 555 tasi (8,7 %) mashina va uskunalardan tashqari tayyor metal buyumlar ishlab chiqarishga to‘g‘ri kelmoqda.

Korxonalar soni
1- iyun holatiga ko‘ra



II. Farg'ona viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2026-yilning yanvar-may oyida viloyat korxonalarini tomonidan 23 054,8 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-may oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,2 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Farg'ona viloyati	23 054,8	108,2
<i>shahar tumanlar:</i>		
Farg'ona shahri	4 663,3	107,2
Qo'qon shahri	3 367,4	107,8
Quvasoy shahri	836,3	109,2
Marg'ilon shahri	939,7	110,3
Oltiariq tumani	435,4	107,1
Qo'shtepa tumani	1 174,8	107,6
Bag'dod tumani	479,2	111,4
Buvayda tumani	530,6	116,2
Beshariq tumani	688,1	110,8
Quva tumani	277,5	112,6
Uchko'prik tumani	2 222,0	112,3
Rishton tumani	303,6	117,8
So'x tumani	59,7	112,7
Toshloq tumani	1 165,1	112,3
O'zbekiston tumani	621,9	110,8
Farg'ona tumani	916,0	108,7
Dang'ara tumani	591,3	110,6
Furqat tumani	280,9	108,2
Yozyovon tumani	224,2	112,4

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalarini joylashganligi hisobiga Farg'ona shahrida (13 889,5 ming so'm), Qo'qon shahrida (10 515,2 ming so'm), Quvasoy shahrida (7 963,3 ming so'm), Uchko'prik tumanida (8 792,1 ming so'm), o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (5 448,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqoriligini ko'rsatmoqda.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,2 % ni tashkil etgan bo'lsa, Yozyovon tumanida (110,5 %), Farg'ona tumanida (106,7 %), Qo'qon shahrida (105,8 %), Beshariq tumanida (109,0 %), Marg'ilon shahrida (108,6 %) So'x tumanida (109,3 %), Rishton tumanida (115,8 %) qayd etilib viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-may oyida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026- yilning yanvar-may oyida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 21 136,5 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi (91,7 %) ni tashkil etgan holda tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 65,9 mlrd so'm (0,3 %), elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 1 621,6 mlrd so'm (7,0 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda 230,8 mlrd so'm (1,0 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026- yilning yanvar-may oyida





III. Yirik sanoat korxonalarini tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026- yilning yanvar-may oyida viloyatda 61,7 ming tonna avtomobil benzini (2025- yilning yanvar-may oyiga nisbatan 104,8 % ga o'sdi) 35 690,6 tonna Paxta tolasi (98,4 % ga o'sdi) hamda 178 115,0 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (123,1 % ga o'sdi) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-may	2025- yil yanvar-may	2026- yil yanvar-may
Paxta tolasi, tonna	40 837,0	35 690,6	35 119,3
Paxta urug'lari, tonna	57 904,3	39 192,7	46 380,5
Avtomobil benzini, ming t	127,0	58,9	61,7
Dizel yoqilg'isi, ming t	154,8	103,1	130,0
Paxta linti, tonna	3 755,5	3 146,3	2 167,8
Neft bitumi, ming t	18,3	16,6	13,1
Portlandsement, ming t	170,1	120,9	333,3

**2024-2026- yillarning yanvar-may oyi uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,8 % (2025- yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 112,8 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 11,9 % (2025 yilning yanvar-may oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 90,2 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,7 % ni (2025-yilning yanvar-may oyida 0,8 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 14,7 % (17,0 %), o'rta-quyi texnologiyali – 24,3 % (27,1 %), quyi texnologiyali 60,3 % (55,1 %) ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2026-yilning yanvar-may oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 87,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 84,2 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-may	2025- yil yanvar-may	2026- yil yanvar-may
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln kvt s	130,0	148,5	129,7
Issiqlik energiyasi, ming gkal	578,0	592,7	499,2

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi


O'tgan yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar 161,0 % ni chiqindi suvlarni olib tashlash, tashish va ularni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar 92,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024- yil yanvar-may	2025- yil yanvar-may	2026- yil yanvar-may
Tabiiy suv; suvga ishlov berish va suv ta'minoti bo'yicha xizmatlar mlrd so'm	83,2	94,8	152,6
Chiqindi suvlarni olib tashlash, tashish va ularni qayta ishlash bo'yicha xizmatlar-mlrd so'm	15,6	20,4	18,9

*2024-2026- yillarning yanvar-may oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

IV. Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 12 924,9 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 56,1 % ni tashkil etdi. 2025- yilning yanvar-may oyida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 53,0 % ni tashkil etgan.



VI. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuvi ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuvi materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslarga bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbfgeheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:

Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:

A.Ibroximov
73 241-96-28 (4010)

Manzil:

